ISTE'MOL MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISHNI RIVOJLANTIRISH QONUNIYATLARI

Z.B.Usmanov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Real iqtisodiyot" kafedrasi katta oqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14191460

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iste'mol tovarlari bozorini tartibga solish va takomillashtirish orqali tovarlar bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish, jismoniy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyati, iqtisodiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyati, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'sish sur'atlarini ta'minlash ko'rib chiqilgan.*

Kalitli so'zlar: *Iste'mol tovarlari, bozor , takomillashtirish , subyekt , oziq-ovqat mahsulotlarini , imkoniyat .*

Аннотация. *В данной статье рассматривается путем регулирования и совершенствования рынка потребительских товаров обеспечивается развитие здоровой конкурентной среды на рынке товаров, повышение эффективности деятельности субъектов предпринимательства, создание условий для обеспечения конкурентоспособности промышленной продукции, рассмотрены возможности физического получения продуктов питания, возможности получения продуктов питания экономическим путем, обеспечение темпов роста производства продуктов питания.*

Ключевые слова: *Товары народного потребления, рынок, улучшение, предмет, продукты питания, возможность.*

Abstract. *In this article, by regulating and improving the market of consumer goods, the development of a healthy competitive environment in the market of goods, the improvement of the efficiency of the activities of business entities, the creation of conditions for ensuring the competitiveness of manufactured products, the possibility of physically obtaining food products, the possibility of obtaining food products economically, ensuring growth rates in the production of food products were considered.*

Key words: *Consumer goods, market, improvement, subject, food products, opportunity.*

Kirish. Yangi O'zbekistonda xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini yuqori darajaga ko'tarish va mustahkamlash borasida davlat tomonidan joriy etib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, butunjahon global muammolaridan biri aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va bunda, yer, so'v hamda boshqa moddiy boyliklardan unumli foydalanish maqsadida uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi mamlakatimiz har bir fuqarosi xonadonining to'kin-sochin bo'lishini ta'minlamoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslanishini tayyorlash hamda yangi loyihalarning infratuzilmasini yaratish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va chuqur qayta ishlash sohasiga xorijiy ekspertlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini qoplab berishga subsidiyalar

mazkur loyihalar to‘liq ishga tushirilib, tegishli dalolatnomalar rasmiylashtirilgandan so‘ng ajratiladi.[1]

Shuni takidlash kerakiy, oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi insonlar iste’moli uchun juda ham zarur bo‘lgan ne’matlaridandir. Shuning uchun ham narx-navoning o‘sishi halatida ham bu mahsulotlarga bo‘lgan talab kamaymaydi. Ayniqsa, mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar insonlar faoliyati bilan chambarchas bog‘langan bo‘li, faqat iqtisodiy samaradorlik bilan o‘lchanib qolmasdan, balki u yoki bu mahsulotning yo‘qligi hayot-mamotni hal qilishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va taklifi faqat yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan o‘lchanmasdan, balki samaradorlik nuqtai nazaridan ham hisobga olinadi. Bu milliy xavfsizlikni ta’minlaydigan yo‘nalishlar orasida oziq-ovqat majmuasi rivojlanishini yuqori o‘rinlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishda fiziologik, tarixiy, milliy, xududiy, iqtilim, intellektual xususiyatlarigi asoslangan chegarsi mavjud bo‘lib, bozorning mahsulotlar bilan to‘ldirilishi natijasida aholining daromadlari o‘sishi ko‘zatiladi va mahsulotlarga talabning ortiqcha namayon bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Natijada oziq-ovqat iste’mol uchun sarflangan xarajatlar ulushi kamayadi, daromadlar yuo‘yicha salbiy egiluvchanlik namoyon bo‘ladi va boshqa tovarlarga e’tibor qaratilib, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish rag‘batlantiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga talab nisbatan sekin o‘zgaradi va ko‘plab omillar, ayrim hollarda umumiy yoki bir mahsulotga tegishli bo‘lgan omillar asosida belgilanadi. Masalan qishloq xo‘jaligiga bo‘lgan munosabat aholining, dehqon va fermer xo‘jaliklariga bo‘lgan munosabatlar asosida aniqlanadi. Aholi tomonidan har doim iste’mol qilinadigan oziq ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ham takror sodir bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z tashabbuslari bilan har doim mahsulot ishlab chiqarish uchun harakat qilish bilan belgilanadi. Oziq ovqat mahsulotlariga talab kam egiluvchanlikka egadir, ya’ni narx-navoning keskin ko‘tarilishi, talab miqdorining keskin kamayishiga olib kelmaydi, shu sababli bir vaqtni o‘zida sotkvchilarining daromadlari ortib boradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi narx-navoning o‘zgarishiga ham bog‘liq bo‘lib, u harakatchanlik, ya’ni tovar hajmining ko‘payishi yoki kamayish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa bu narsa o‘simlik mahsulotlarida bu yaqqol seziladi, chorvachilik mahsulotlarida esa uzoq muddatli takror ishlab chiqarish bochqichlari mavjuddir. Ayniqsa dehqon xo‘jalik egalari o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarining bozordagi kon’yunkturasini yaxshi bilganliklari tufayli, ulardan ayrimlarini ma’lum bir vaqtgacha, ya’ni narx-navoning ko‘tarilishi davrigacha ushlab turishi mumkin va natijada yaxshi daromad olishga harakat qiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri ishlab chiqarishda tabiy-iqlim sharoitlari va yana boshqa sabablarga ko‘ra mo‘ljaldagi nisbatan kamroq hosil olish holatlarining sodir bo‘lishidir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy ob-havo va boshqa sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanadigan rivojlangan mamlakatlarda ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi kutilmagan natijalarni berishi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida 2022 yil 20 yanvardagi 37 sonli qarori

mumkin. Masalan qirg‘oqchilik, suv toshqinlar, zararkunandalar, mollar va o‘simliklarni kasallanishi, o‘rishlar, inqiloblar, va hokazolar bular agrar sohada saraflanadigan kapitalni oqlamasligi kuzatilgan. Oziq ovqat mahsulotlariga xos bo‘lgan yuqoridagi kabi xususiyatlarni yana ko‘plab atab o‘tish mumkin. Lekin, bizning fikrimizcha, qayd qilingan holatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol bozorida sotilishi, aholi ehtiyojlarin qondirishda juda katta ahamayatga esha bo‘lgan.

Keyingi paytlar oziq-ovqat majmuasida sodir bo‘ladigan bozor munosabatlarida oziq-ovqat mahsulotlari marketingi tushunchasi ham tez tez ishlatilmoqda. Bunga e’tibor berilishining asosiy sabablaridan biri bu aholining jami xarajatlari tarkibida oziq-ovqat xarajatlari salmoqli hissaga egadir. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlarini iste’molchilariga yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatda, marketing majmuasidan foydalanish zarurligi haqida nazariya va amaliyotda turli fikrlar bildirilmoqda. Iqtisodchi olimlardan biri J.Rodes oziq-ovqat mahsulotlari haqida to‘xtalib: marketing-bu oziq ovqat va texnika xomashiyolarini fermer xo‘jaligidan bevosita iste’molchigacha bo‘lgan faol ish yuritish yoki ish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni qoplab oladigan harakatlarning yig‘indisidir deb qarashi diqqatga sazovordir.[2]

...ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlariga (yurtimizda ishlab chiqarilgan o‘simlik yog‘i va un, go‘sht, shakar), shuningdek, sheluxa va shrotga bo‘lgan narx-navoni sun’iy oshirishga, ularga bo‘lgan tanqislik va ajiotaj talabning vujudga kelishiga yo‘naltirilgan qonunga xilof harakatlarni aniqlash va chek qo‘yish;

- markazlashtirilgan resurslar hisobidan oziq-ovqat tovarlari, paxta shroti va sheluxasini xarid qilish, yetkazib berish va sotishda suiiste’mol qilinishlar va korrupsiyaga qarshi kurashish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlariga, shuningdek, sheluxa va shrotni sotishda narx-navoni shakllantirishning belgilangan mexanizmlariga rioya etilishini tizimli o‘rganish, aniqlangan qonunchilik buzilishlari bo‘yicha materiallarni qonun hujjatlariga muvofiq chora ko‘rish uchun vakolatli organlarga yo‘naltirishi;
- nazorat qiluvchi organlar va bozorlar ma’muriyati xodimlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan korrupsiya, ular tomonidan bozorlar faoliyatini tashkil etishning belgilangan tartiblari va qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, shu jumladan, narxlarni asossiz ko‘tarish, ularning hududlarida o‘z faoliyatini norasmiy olib borayotgan shaxslarga nisbatan choralar ko‘rmaslik holatlarini aniqlash.[3]

O‘zbekiston o‘zining betakror tabiati, serhosil tuprog‘i, o‘ziga xos iqlim sharoiti sabab yilning to‘rt faslida ham qishloq xo‘jaligi sohasida ulkan natijalarga erishib kelmoqda. Bu kabi imkoniyatlar sabab O‘zbekiston o‘z aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining katta qismini o‘z ichki resurslari orqali ta’minlab, katta hajmdagi mahsulotni eksport qilish imkoniyatiga ega davlatlar qatoridan joy egallagan.

O‘zbekiston Respublikasida 2024 yilning yanvar-may oylarida yirik korxonlar tomonidan 2212,4 ming tonna yugort ishlab chiqildi.

Mazkur ishlab chiqarish hajmi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan solishtirilganda 22,3 foizga oshgan.[4]

[2] Rhodes J.The Agriculfural Marketing System. N.Y.1997. p.7.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Respublika aholisini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan ishonchli ta’minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3082 sonli qarori 23.06.2017 y.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari

Bunda o‘tgan besh yilda soha taraqqiyotini ta’minlovchi bir qator qonun hujjatlari va strategiyalarning ishlab chiqilganligi alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi va boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar shular jumlasidandir.



1-rasm Samarqand viloyatining iste'mol tovarlari mlrd so‘mda[5]

Ushbu rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Samarqand viloyatida iste’mol tovarlar savdosining 2010 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlari keltirilgan. Biz ushbu rasmdaga ko‘rsatkichlarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak 2010 yilda ushbu ko‘rsatkich 1412,4, 2011 yilda 1736,3, 2012 yilda 2070,7, 2013 yilda 2484,0, 2014 yilda 3242,3, 2015 yilda 3829,9, 2016 yilda 5079,8, 2017 yilda 5919,2, 2018 yilda 7848,2, 2019 yilda 8745,3, 2020 yilda 11836, 2021 yilda 14381,9, 2022 yilda 9896,6, 2023 yilda 10415,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2010 yildan 2023 yilgacha iste’mol tovarlar savdosi o‘sib kelganligini ko‘rib turibmiz. Biz ushbu rasmdagi ma’lumotlarni 2010 yilga nisbatan tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak. 2011 yilda 2010 yilga nisbatan 1,2 barobar oshgan, 2012 yilda 2010 yilga

[5] Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

nisbatan 1,5 barobar oshgan, 2013 yilda 2010 yilga nisbatan 1,7 borabar oshgan, 2014 yilda 2010 yilga nisbatan 2,3 barobar oshgan, 2015 yilda 2010 yilga nisbatan 2,7 barobab oshgan, 2016 yilda 2010 yilga nisbatan 3,6 barobar oshgan, 2017 yilda 2010 yilga nisbatan 4,2 barobar oshgan, 2018 yilda 2010 yilga nisbatan 5,5 barobar oshgan, 2019 yilda 2010 yilga nisbatan 6,2 barobar oshgan, 2020 yilda 2010 yilga nisbatan 8,3 barobar oshgan, 2020 yilda 2010 yilga nisbatan 8,4 barobar oshgan, 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 10,2 barobar oshgan, 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 7,0 barobarga oshgan, 2023 yilda 2010 yilga nisbatan 7,4 barobarga oshganligini ko‘rib turibmiz. Endi biz eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan 3 ta yilnikini tahlil qiladigan bo‘lsak birinchi o‘rinda 2021 yil ya’ni 14381,9 mlrd so‘mni tashkil etgan 2010 yilga nisbat 10,2 barobarga oshgan, ikkinchi o‘rinda 2020 yil ya’ni 11836 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2010 yilga nisbatan esa 8,4 barobarga oshgan, uchinchi o‘rinda esa 2023 yil ya’ni 10415,7 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2010 yilga nisbatan 7,4 barobarga oshgan. Iste’mol tovarlar savdosini samarqand viloyatida oxirgi ikki yilda ya’ni 2022 yil va 2023 yillarda 2021 yilga nisbatan pasayganligini ko‘rishimiz mumkin nima uchun kamayganligini va kamayish sabablarini va kamayishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganib, yechimini ishimizni keyingi bosqichlarida taklifimizni beramiz.



2-rasm Samarqand viloyatining hududlar kesimda 2023 yilda ekspori mln AQSH dollar[6]

Ushbu rasm ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahar 45,2 foizni, Jomboy tumani 11,2 foizni, Kattaqo‘rg‘on shahar 10,2 foizni egalagan. Eng quyi ko‘rsatkichni Kattaqo‘rg‘on tumani 1,0 foizni, Nurobod tumani 0,1 foizni, Qo‘shrobot tumani 0,1 foizni tashkil etgan.

[6] Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ammo so‘nggi yillarda dunyo mamlakatlari uchun sinov bo‘lib kelayotgan pandemiya, global darajadagi iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi hamda giyosiyosiy vaziyatlar sohada amalga oshirilayotgan izlanishlarni yanada jadallashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqarorligini saqlab qolish uchun avvalambor sohaga resurs tejovchi texnologiyalarni kengroq qo‘llashni, shu bilan birga, bor kuch va imkoniyatni safarbar etishni taqoza etmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, mart oyida dunyo bo‘yicha oziq-ovqat narxlari 2021 yilning mos davriga nisbatan 34 foizga oshgan. Ayniqsa, yil boshidan jahon bozorlarida bug‘doy narxi – 20 foizga, makkajo‘xori – 19 foizga, ozuqa donlari – 20 foizga va o‘simlik yog‘i esa – 23 foizga ko‘tarilgan. Shu bilan birga, Jahon bozorida mineral o‘g‘itlar va yoqilg‘i narxlari 2 baravarga oshgani sabab, hozirgi narx-navo yana ham oshishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Shu bois, kuni kecha davlatimiz rahbari raisligida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali bozorlarda narx-navo barqarorligini ta’minlash hamda biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Unda joriy yilda qishloq xo‘jaligida fodalanish mumkin bo‘lgan yutuqlar bilan birga, oldimizda turgan dolzarb masalalar tanqidiy-tahlil qilindi. Xususan, joriy yilda yurtimizda nisbatan yog‘ingarchilik yaxshi bo‘lganligi hisobiga, vodiy viloyatlari, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida suv zaxirasi 20 foizga ko‘paygani, ammo Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida suv ta’minoti bo‘yicha qiyinchiliklar kuzatilishi mukinligi ta’kidlandi.

Ammo, har qanday sharoitda ham aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun mavjud yer resurslaridan samarali foydalanib, 2022 yilda 7,7 mln. tonna bug‘doy, 23 mln. tonna meva-sabzavot yetishtirib, 1,5 mlrd. dollarlik eksportni ta’minlashga alohida ahamiyat qaratildi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish uchun yangi qo‘shilayotgan 300 ming gektardan ziyod yer maydonlaridan hamda 80 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilishi natijasida 254 ming nafar aholiga ochiq tanlov asosida bo‘lib berilgan yerlardan samarali foydalanish zarurligiga to‘xtalib o‘tildi.[7]

Sir emaski, yurtimizda eksport-import operasiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo‘lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishdagi to‘siqlar, nosog‘lom raqobat, ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan import mahsulotlarining monopollashtirilishi, narx-navoning sun’iy oshirilishi, taqchillikning yuzaga kelishi kabi bir qator muammolar hamon uchrab turibdi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya’ni iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 27 foizi ishlaydi. YaIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo‘lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e’tiborli jihati, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo‘lga qo‘yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to‘qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig‘idir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo‘lsa, 2050 yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi o‘limning 45 foizi aynan

[7] https://parliament.gov.uz/oz/articles/63

to‘yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko‘z yummoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo‘yicha yondashuvni mutlaqo o‘zgartirish vaqti kelganini ta’kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to‘liq ta’minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo‘lida ham qishloq xo‘jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi ta’minlanadi.[8]



3-rasm Respublikada yetishtirilgan don va dukkakli don mahsulotlari ming tonna.[9]

Ushbu rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Respublikada yetishtirilgan don va dukkakli don mahsulotlar 2010 yildan 2022 yilga bo‘lgan davrni tahlili qiladigan bo‘lsak 2010 yilga nisbatan 2022 yilda 1,0 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar bilan tamg‘alanadi. 2021 yil 1 iyuldan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi; ta’lim, sport va tibbiyot muassasalarida xavfsizlik belgisi bilan tamg‘alanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bunday mahsulotlarni realizasiya qilish savdo qoidalarini buzish sifatida baholanadi.[10]

Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning sifati va ko‘lamini oshirish borasida O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tizimida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-

[8] https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi
[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi
[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 11.11.2020 y. 07/20/4887/1496-sonli qarori

tadbirlar to‘g‘risida” gi 11.11.2020 y. 07.20.4887/1496-sonli qarori Unga asosan “Yog‘-moy va oziq-ovqat sanoati” hamda “O‘zgo‘shtsanoat” uyushmalarining negizida yog‘-moy, go‘sht-sut, qandolatchilik, pivo-alkogolsiz ichimliklar, konserva hamda sohaning boshqa korxonalarini ixtiyoriy ravishda birlashtirib turuvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tashkil topdi. Mazkur uyushma muassislari sifatida jami 122 ta, shu jumladan, 39 ta yog‘-moy, 46 ta go‘sht-sut korxonalari, 21 ta konserva, qandolat va boshqa oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, 16 ta xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar ro‘yxatga olindi. O‘tgan davr mobaynida uyushmaning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida zamonaviy bozor munosabatlarini keng miqyosda o‘zlashtirish masalasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yangi ro‘yxatiga imtiyozlar joriy etilishi haqida prezident Shavkat Mirziyoyev 23 mart kuni oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish, bahorgi ekin mavsumini samarali tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ma’lum qildi.

Eksport-importda logistika, o‘g‘it va yoqilg‘i xarajatlari oshib ketgani ham oziq-ovqat narxlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatayapti. Tahlillarga ko‘ra, bu holat 2023 yilda ham, kelgusi yillarda ham saqlanib qoladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2024 yilgacha 34 turdagi oziq-ovqat va tovarlar pishloq, tvorog, shokolad, qandolat mahsulotlari, olma, nok, behi, yogurt, kefir, sut mahsulotlari, makaron, cho‘chqa gushti importiga 2024 yilgacha nol stavka joriy etilishini tasdiqladi. Piyoz, salat bargi iportiga ham imtiyozlar joriy etilmoqda.[11]



[11] https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/23/zero-duty-rate/

Aytib o‘tish joizki, respublikamizda barcha oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan umumiy mahsulot hajmida uyushma korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ulushi 27,9 foizni tashkil etishi alohida e’tirofga loyiqdir.

4-rasm Respublikada yetishtirilgan sabzavotlar ming tonna.[12]

Ushbu rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Respublikamizda 2010 yildan 2022 yilgacha yetishtirilgan sabzavotlar ming tonna hisobida ko‘rsatkichlar keltirilgan 2010 yilga nisbatan 2022 yilda 1,8 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa Respublikada yetishtirilgan sabzavotlar har yili oshib borganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zamon talabidir. BMT ning “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan ta’kidlanishicha, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, bu barcha insonlarning xohlagan vaqtda jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarli miqdorda xavfsiz oziqaviy mahsulotlar bilan ta’minlanishni anglatadi. Ushbu mahsulotlar shaxsni fiziologik me’yorlar bo‘yicha qoniqtirilishi, uning xohish-istagiga mos kelishi va faol sog‘lom turmush tarzini shakllantirishi shart”. Ammo yetarli darajada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanishini anglatmaydi. Chunki har bir inson ehtiyojiga yarasha mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lishi ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi faktorlardan biridir. Jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta’minlash omillari quyidagilardan iborat:

- jismoniy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyati;
- iqtisodiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini olish imkoniyati;
- tashqi omillarga bog‘liq bo‘lmagan holda mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligiga erishish;
- mavsumiy va iqlimiy omillariga chidamlilik;
- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda o‘sish sur’atlarini ta’minlash.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatda yetarli miqdorda yuqori sifatli, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi va aholining to‘liq rasiondagi mahsulotlarni sotib olish imkoniyatiga egaligi bu oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanganligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda sifatli, ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish meva-sabzavot va uzumni sifatli qayta ishlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yaqingacha, mahsulotlarimiz asosan MDH mamlakatlarida sotilgan bo‘lsa, endi yurtimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari Yevropa, Osiyo, Amerika qit’asining rivojlangan davlatlariga, xususan, Germaniya, Pol’sha, AQSh, Gollandiya, singari mamlakat bozorlariga yetkazib berilmoqda.

Bu esa ichki bozor ehtiyojini to‘laroq qondirish, eksport mahsulot miqdorini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda iste’mol tovarlari bozorini tartibga solish va takomillashtirish orqali tovarlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashga shart-sharoitlar yaratadi.

Bizning fikirimizcha jamiyatda yashovchi har bir kishi oziq-ovqat tovarlarga bo‘lgan extiyojlari to‘liq qondirilsa, insonning normal rivojlanishi va faoliyat yuritishi, uning organizmida to‘g‘ri modda almashinuvi, salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish,

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

keksayish jarayonini sekinlashtirish aqliy va jismoniy jihatdan kamchiliklarsiz rivojlanishiga olib keladi. Bu esa har bir kishilarni o‘z faoliyatlarini samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023 yil. 30 aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2004 yil 29 aprelda qabul qilingan. 2015 yilda yangi tahriri qabul qilingan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 apreldagi “Aholini sifatli iste’mol tovarlari bilan ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-110-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Respublika aholisini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan ishonchli ta’minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3082 sonli qarori 23.06.2017 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Iste’mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta’minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta’sirchanligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2022 yil 31 maydagi PF-145 sonli farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholini sifatli iste’mol tovarlari bilan ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2023 yil 4 apreldagi PQ-110 sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 11.11.2020 y. 07/20/4887/1496-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023 yil 27 dekabrdagi PQ-410-sonli qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-sonli farmoni
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 8 avgustdagi hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3182-sonli qarori.
12. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik.-T.: «Iqtisodiyot va moliya», 2010.
13. Abdukarimov B., Abdukarimov F.B. Savdo iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. I-qism, 2013-250-255 betlar.
14. Yo‘ldoshev N.Q. Savdo korxonasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma – T.: TDIU. 2005. – 5 b.
15. Самуэльсон П.”Экономика”1 том .М.:НПО “Алган” ВНИСЧИ 1992 г – 335 стр.
16. Раицкий К.А.Экономика предприятия. Учебник. -М.:ИВЦ «Маркетинг».2003.с.683
17. Емельянова Т.В. Экономика обўественного питания ғМинск .Высшая школа.2003
18. Ефимова О.П.Экономика общественного питания. Минск. Новое знание, 2008.с.348
19. Чкалова О.В. Торговое дело. – М.: Эксмо, 2008.
20. Джон Ферни и др. Принципы розничной торговли. Пер. с англ. Сапциной У.– М.: ЗАО «Олимп – Бизнес», 2008.